ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

Folklorshunoslik

Abdumurod Tilavov

O‘zbek dostonlariga doir Turkiyadagi tadqiqotlar 147

Hulkar Aliqulova

Turkiy xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning qiyosiy tipologik tahlili 160

Ilhom Jumayev

“Qutadg‘u bilig” dostonida Kuntug‘di va O‘zg‘urmish munosabatlarining folklor motivlariga xos talqini 171

Norkulova Shaxnoza

“Boburnoma”da xalq og’zaki ijodi namunalari badiiy talqini 181

Dilorom To‘rayeva

Usmon Azim ijodida folklor namunalari va xalqona ohang **.....** 189

Mahkamova Dilafruz

“Bilga Xoqon” obrazining zamonaviy nasr va nazmda ifodalanishi .. 198

Rajabbayeva Ozoda

O‘zbek mifologiyasida “Irq bitik”ning qimmati 207

Abduraximova Nazokat

O‘zbek va turk xalqlarida nikoy to‘yi marosimi 216

Turobova Mohinur

O‘zbek laparlari va turk karshilikli manilari tadqiqi 224

O‘ZBEK LAPARLARI VA TURK KARŞILIKLI MANILARI TADQIQI

Turobova Mohinur[1]

Abstrakt

Ushbu maqola o‘zbek va turk laparlarining ilmiy-nazariy tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda lapar va karşılıkı manining o‘xshash va farqli jihatlariga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, har ikki qardosh xalq urf- odati, madaniyati bilan bog‘liq ma’lumotlar ham keltirib o‘tilgan. Maqolada, Turkiy xalqlarning urf odati, marosimlari hamda ijro o‘rni, ijro shakli, ijro hajmi naqadar o‘xshash ekanligiga to‘xtalib o‘tamiz. Jumladan, ikki qardosh xalqning badixago‘yligi, so‘zamonligi Turkiy xalqlarning ildizi bir ekanini yana bir bora yodimizg soladi.

Kalit so‘zlar: Lapar, karşılıkı mani, marosim, toren, aytishuv.

Kirish

O‘zbek xalqi qadimiy madaniyati, tarixi, urf-odati, an’ana, marosim va betakror so‘z san’ati bilan boshqa xalqlardan yaqqol ajralib turadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xalqimizning musiqa boyliklari juda ko‘pqirrali, sermazmun va rang-barangdir. Ohangdor ajoyib kuylarimiz va folklor namunalari kishiga quvonch, xursandchilik bag‘ishlaydi, og‘ir damlarni yengil qiladi. U insonni oliyjanob fazilatlari, his va tuyg‘ularini ifodalab beruvchi kuchga egadir. O‘zbek xalq lirikasining janrlar tarkibi rang-barang bo‘lib, ularning har biri voqelikni aks ettirish tarzi, usul va vositalari, obrazlari va badiiyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham, o‘zbek xalq lirikasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilib kelinayotganligiga qaramay hamon yangi-yangi ilmiy-nazariy, ilmiy- ijodiy kuzatishlarni talab etadi. Biz shulardan lapar janriniga to‘xtalmoqchimiz va bunga o‘x-

[1]*Turobova Mohinur* - Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
E-pochta: turobovmohinur@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0003-7156-3169
Iqtibos uchun: *Turobova M.* 2025. *“O‘zbek laparlari va turk karşilikli manıları tadqiqi”.* O‘zbekiston: til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik. 2. 224-231. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/VPQZ3011

shash bo‘lgan Turk qarshilikli manisini qiyoslamoqchimiz. Turk xalqi ham azaldan kuy, qo‘shiq, raqslar, aytishuvlarga alohida e’tibor bilan qaraganlar va hordiq chiqarish uchun ham turli yerlarda turlicha qo‘shiqlar, aytishuvlar aytganlar. Bundan farqli ravishda O‘zbek folklorshunosligi olimlarini aksariyati lapar janrini to‘y marosimlarida aytilgan degan fikrni ilgari suradilar. Avvalo, lapar janriga to‘xtalsak. Lapar janrining vujudga kelish masalasida ham folklorshunosligimizda turlicha qarashlar mavjud. Masalan, taniqli folklorshunos olim M. Alaviya: “ O‘lan, lapar, yor-yor qadimda bir bo‘lgan. Keyingi vaqtlarda turli to‘y marosimlari, har joydagi kishilarning yashash sharoitlari bilan bog‘liq ravishda ular orasidagi tafovvutlar kuchaygan. Ularning har biri to‘y marosimining ma’lum bosqichi bilan bog‘lanib qolgan va mustaqil qo‘shiq turiga aylangan», - deb yozadi. Professor B.Sarimsoqov esa lapar va o ‘lan janrlarining tarixan aloqadorligini e’tirof etgan holda har ikki janrning yor-yor janri bilan aloqadorligiga qo‘shilmaydi. Marhum professor H.Razzoqov o‘lan, yor-yor, lapar kabi to‘y marosim qo‘shiqlari haqida to‘xtalib, mazkur qo‘shiqlarning har biri mustaqil janr ekanligini qayd etib quyidagicha yozadi: Laparlar xalq qo‘shiqlarining bir turi bo‘lib asosan yigit-qiz o ‘rtasida ijro qilinadi. Bu jihatdan laparlar o‘lanlarga o ‘xshab ketsalarda, tematika, g‘oyaviy mazmuni, vazni va yengil musiqiyligi, o ‘zidagi yumor-satira elementlarining o ‘tkirligi bilan ulardan farq qiladilar.

N. Qosimov esa laparni shunday talqin qiladi: o‘lan ham, lapar ham, yor-yor ham to‘y marosimining turlicha uzvlarida ijro etilib, o‘zlariga xos vazifani ado etadilar. Masalan, yor-yor qiz uzatar kechasi ijro etilsa, lapar va o‘lanlar «qizlar bazmi» da ijro etilgan[Qosimov, 2008;10].

O‘lanlar asosan o‘tmishda ko‘chmanchilik tarzini kechirgan chorvador o‘zbeklar o‘rtasida ijro etilsa, laparlar o‘troq o‘zbeklar o‘rtasida aytilgan. Eng qizig‘i shundaki, o‘lan ijro etilgan joylarda lapar aytilmaydi.

Har uchala janr ham bir-biridan farqlanuvchi o‘zlariga xos ijro usuli, ijrochilari va badiiylik xususiyatlariga ega. Mantiqan yondashilsa, tarixan bir bo‘lgan janr keyinchalik turli ijrochilar tarkibiga ega bo‘lgan, turlicha mavzu va poetik xususiyatlar kasb etgan mustaqil janrlarga ajralib keta olmaydi**.** O‘zbek xalq laparlariga xos xususiyatlardan biri va eng asosiysi sifatida mazkur janrning tarixan to‘y marosimlari tarkibida

ijro etilishini nazarda tutmoq lozim. Chunki, janrning marosim bilan genetik aloqadorligi uning og‘zaki ijod an’anasida juda ham qadimiy ekanligdan dalolat beradi. Demak, laparning asosan nikoh to‘ylarining muayyan bir uzvida - qizlar bazmida ijro etilishi janrning tarixan mustaqil janr sifatida vujudga kelib, mustaqil taraqqiy etib kelayotganligini anglatadi.

O‘zbek xalq laparlarining tarixan faqat marosimga qiziqarlilik va shodlik musiqiylik va jonlilik bag‘ishlabgina qolmay, balki o‘ziga xos magik-ritual vazifa o‘tayotganligidan dalolat beradi. Lapar janri va uning ijro etilishi o‘rni qay darajada kengaymasin, uning tarixan ilk vujudga kelish o‘ni to‘y marosimlari hisoblanadi. Shuning uchun janrning eng barqaror ijro o ‘rni sifatida to‘y marosimi hozirga qadar saqlanib kelmoqda**.**

Turk qarshilikli manisida esa, Maniler, halkın sözlü anlatım geleneğinde yaayarak nesilden nesle, ağızdan ağza dola ıp günümüze kadar ulamı anonim halk edebiyatı ürünleridir. Mâni, Türk halk Şiirinin ana nazım Şekillerinden biridir. Ne zaman ortaya Çıktığıkesin olarak bilinmemekle beraber Islamiyet öncesi dönemde de kullanılan bir tür olduğu bilinmektedir. Mâni, yedi heceli, dört mısralı tek dörtlükten meydana gelen bir nazım Şeklidir. En belirgin özelliği tek dörtlükten meydana gelmesi ve kafiye düzeninin öteki nazım Şekillerine benzememesidir. Mâninin anlam yükünü üçüncü ve dördüncü mısralar taşırken genellikle ilk iki mısra, asıl anlamı veren son mısraya bir hazırlık yapılmasını sağlayan doldurma mısralardır. Mâninin belirgin özelliklerinden birisi de hecenin yedilisi ile hemen hemen her konuda söylenmesidir. Türkiye’de mâniye değışik bölgelerde değışik adlar verilir: Mâna, me’âni, hoyrat, karşı-beri gibi.

Tarjimasi: Manilar, Xalqning og‘zaki ifoda an’anasidan yoyish orqali nasildan nasilga, og‘izdan og‘izga o‘tib, bugungi kunimizga qadar kelgani anonym xalq adabiyoti maxsulidir. Mani, Turk xalq she’rining ona nazim shakillaridan biridir. Qaysi davrda vujudga kelgani mavhum ekani bilan birga Islomdan avvalgi davrda ham mavjud bo‘lgan bir tur ekani rostdir. Mani, yeti hijoli, to‘rt misrali , yagona to‘rtlikdan hosil bo‘lgan bir nazim shaklidir. Eng ustuvor xususiyati yagona to‘rtlikdan

hosil bo‘lishi va qofiya tartibining aldingi nazim shakillariga o‘xshamasligidir. Manining ma’no yuki uchinchi va to‘rtinchi misralarda kelarkan odatda ilk ikki misra, asl ma’noni bergan oxirgi misraga tayyorlash imkonini beradigan to‘ldiruvchi misralardir. Manining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ham hijoning yettiligi bilan shu ondayoq har mavzuda aytilishidir. Turkiyada maniga boshqa hududlarda o‘zgacha nomlar beriladi: ma’no, hayrat, qarshi-beri kabi.

Yoğun bir çalışma temposunun ardından boşta kalan zamanlarında geleneksel yaşamlarının bir parçası sayılan çeşitli törenleri, düğünleri, eğlenceleri ve önemli olayları kutlarlar. Bu türden gelenekler içerisinde halk edebiyatının bir çeşidi kabul edilen “mani söyleme geleneği”nin de ayrı bir yeri vardır. Dolaysıyla, bu şiir tarzı gelenekler içerisinden çıkmıştır, denilebilir. Zamanla, kırsal kesimde yaşayan toplulukların karşı karşıya bulunduğu sosyal, ekonomik ve siyasal dönüşümlerin manilere yansıdığına tanık oluyoruz. Mani sözcüğü dört mısradan oluşan ve yedili hece vezni ile düzenlenen kısa bir halk şiiridir. Birinci ikinci ve dördüncü mısraları kendi aralarında kafiyeli üçüncü mısraları serbest olur. Genellikle aşk ve tabiat konularını anlatırlar. Mani kelimesi (Arapça ma’na, ma’ni’den) manalarını verir. [Süreyya Özbek, 2010: 20].

Tarjimasi: Charchoqli ishlardan keyingi vaqtlarini madaniy hayotning bir parchasi sanalgan turli xil marosimlar, to‘ylar, bayramlar va muhim voqealarni qutlaydilar. Bu madaniyatlarni ichida xalq adabiyotining bir turi sifatida qaralgan “lapar so‘ylash madaniyati” ning ham alohida o‘rni bor. Shuningdek, bu she’r turi urf-odatlardan paydo bo‘lgan. Qadimda insonlarning bir birlariga bo‘lgan munosabatlari, yashash tarzi aynan “mani” larga ko‘chganini ko‘ramiz. “Mani” so‘zi to‘rt misradan tashkil topgan va yetti hijodan tuzilgan qisqa xalq she’rlaridir. Birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misralari o‘z orasida qofiyali uchinchi misrasi erkin misradir. Odatda sevgi va tabiat mavzulari ko‘p uchraydi. “Mani” so‘zi (Arabcha ma’no)dir.

Ko‘rib turganimizdek, ikki qardosh xalq orasidagi urf-odatlar deyarli o‘xshash. Lapar Tojik tilida so‘zga javob qaytarish ya’ni hozirjavoblik deya qaralsa, Turklarda esa Arap tilida ma’no deya qaralyapti.

O‘zbek xalqida azaldan marosimlar, urf-odatlar o‘z o‘rniga

ega bo‘lib kelgan. Oilaviy-maishiy marosimlarning biri bo‘lmish “qizlar bazmi” ham shular jumlasidandir. To‘ydan oldingi kuni kechqurun qizning uyida “qizlar bazmi” marosimi bo‘ladi. Bu bazm ayrim joylarda “lapar kechasi” deb ham yuritiladi. Qiz bazmiga yig‘ilganlarga ziyofat beriladi. Biroq osh tortilishidan oldin hovlida katta gulxan yoqiladi. Gulxanning bir tomonida qizning dugonalari, ayollar turadi, Ikkinchi tomonida esa kuyov tomonidan kelgan yigitlar turib olishadi.

Bazmni boshqarish Yoshi kattaroq, tajribali va so‘zga chechan ayollardan biriga topshiriladi. U bazmda odobsizlik qilgan yoki qo‘pol mazmundagi laparlarni aytgan yigitlarni majlisdan haydab, tartib va odob saqlash ustidan nazorat olib brogan. Shuning uchun ham lapar kechalari juda tartibli va yoqimli kechgan.

Lapar aytish marosimi turklarda ham huddi shu tarzda o‘tkaziladi:

“Kırım ve Nogay Türklerinin söyledikleri şınlar lirik özellikten çok karşılıklı konuşma, şarkı söyleyerek konuşma özelliğini taşırlar. Umumiyetle iki delikanlı iki kız karşısına çıkarak şın söylerler (şınlarlar) Köylerde (bilhas sa) eskiden düğünlerde kızlar ve caşlar (delikanlılar) bir yere toplanıp ayn ayrı, karşı karşıya otururlardı. Kızlar oturur delikanlılar ise ayakta dururlardı. Birbirlerine karışmamaları için aralarına hat şeklinde uzun bir odun yerleşti rilirdi. Aynı zamanda, odunun yanında köyün çok sayılan, hatırı geçen bir orta yaşta erkeği nöbet tutardı. Odunu atlayarak kızlar arasına giren delikanlı bu adamdan iyi bir sopa yerdi. Bu adama karşı kimsenin el kaldırmaya hakkı yoktu. Şınlarda karşılıklı aşk ifade edildiği gibi, muhtemel izdivaç için kızla delikanlı kendi aralarında anlaşabilirlerdi.” Verilen örneklerden bu tür atışmalarda kafiye düzeni abcb olan düz manilerin tercih edildiği, zaman zaman yedi heceli kalıbın da dışına çıkıldığı, hece sayısının bazı mısralarda altıya indiği veya aşağıdaki atışmanın sonun da olduğu gibi hem mısra sayısının azalarak ikiye düştüğü, hem de hece sayısının on bire çıktığı anlaşılmaktadır[Ali chelik, 2005;72].

Tarjimasi: Qirim va Nog‘ay turklarning aytgan aytishuvlari (shartli ravishda) lirik shaxsiylikdan ko‘ra qarshilikli so‘zlashuv, qo‘shiq aytish orqali so‘zlashish xususiyatini tashiydilar. Umuman olganda ikki yigit ikki qizni oldiga chiqib aytishuv aytarlar. Qishloqlarda avvaldan to‘ylarda qizlar va yigitlar bir yerga to‘planib ayri,ayri qarshi qarshiga o‘tirishar edi. Qizlar o‘tirar yigitlar esa tik oyoqda turardilar. Bir birlariga halaqit bermas-

lik uchun oralariga xat shaklida uzun bir yog‘och qo‘yishar edi. Ayni vaqtda, o‘tinning yonida qishloqning hurmatga sazovor o‘rta yosh erkak kuzatib turardi. Yog‘ochdan sakrab qizlar orasiga kirgan yigitlar bu odamdan yaxshigina tayoq yerdi. Bu odamga qarshi qo‘l ko‘tarish mumkin emasdi. Aytishuvlarda qarshilikli sevgi ifoda etilgani kabi, nikoh qurish uchun ham qiz bilan yigit o‘z oralarida kelisha olar edilar. Berilgan misollardan bu tur otishmalarda qofiya shakli a b c b bo‘lgan to‘g‘ri manilarni tanlaganlari, vaqti vaqti bilan yeti hijoli qolipdan ham tashqariga chiqilgani, hijo sanog‘ining bazi misralarida oltiga tushgani yoki misol tariqasida berilgan qarshilikli manidagi kabi oxiridagi kabi ham misra sanog‘ining kamayib ikkiga tushgani, hamda hijo sanog‘ining o‘n birga chiqqani tushuniladi.

Lapar aytish jarayonini ayol kishi boshqarsa, mani aytishda esa erkak kishi boshqarib borgan. Bu esa marosimni tartibli o‘tishiga hissa qo‘shgan. Aytishuv aytish shakli o‘xshashligini ham ko‘rishimiz mumkin.

Xalqimizning musiqa boyliklari juda ko‘pqirrali, sermazmun va rang-barangdir. Ohangdor ajoyib kuylarimiz va folklor namunalari kishiga quvonch, xursandchilik bag‘ishlaydi, og‘ir damlarni yengil qiladi. U insonni oliyjanob fazilatlari, his va tuyg‘ularini ifodalab beruvchi kuchga egadir. O‘zbek xalq lirikasining janrlar tarkibi rang-barang bo‘lib, ularning har biri voqelikni aks ettirish tarzi, usul va vositalari, obrazlari va badiiyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham, o‘zbek xalq lirikasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilib kelinayotganligiga qaramay hamon yangi-yangi ilmiy-nazariy, ilmiy- ijodiy kuzatishlarni talab etadi. Turkiy xalqlarning urf-odati, an’analari, qarashlari, yasham tarzlari, inonchlari o‘xshash ekani, ular bir jon-u bir tan ekanliklari mana shunday folklor na’munlarida yashab kelmoqda. Jumlada, prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning oxirgi paytlarda folklor janriga qaratayotgan katta e’tiborlari, gulxan atrofida folklor kechalarini o‘tqazish haqidagi tashabbuslari, yosh tadqiqotchilarni yanada ruhlanishiga yanada izlanishiga turtki bo‘lmoqda.

Adabiyotlar

Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – Toshkent: Talqin, 2008, 10-bet.

Qosimov N. O‘zbek xalq laparlari janr spesifikatsiyasi va badiiyati dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zb.Res. fanlar akademiyasi 1998.

Süreyya Özbek. Kıbrıs Türk toplumunda sosyal, ekonomik ve siyasal dönüşümlerin manilerde irdelenmesi yüksek lisans tezi – Ankara: 2010, 20- sayfa.

O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi, Toshkent “O‘qituvchi nashriyoti” 2019. – 108 b.

Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zb xalq poetik ijodi. – Toshkent: “O‘qituvchi” 1990. – 135 b.

Ali Chelik. “Manilerimiz va Trabzon manilari” – Ankara 2005. 72 sayfa

A STUDY OF UZBEKI LANGUAGES AND TURKISH COUNTERFEIT MANIS

Turobova Mohinur[1]

Abstrakt

This article is devoted to the scientific-theoretical study of Uzbek and Turkish lapars. In this article is given information about similar and different aspects of lapar and as well as a comparative analysis of this musical genre.Also have informations related to the customs and culture of both brother nations. In the article, we will focus on how similar the customs, rituals, and performance venues, forms, and sizes of the Turkic peoples are. In particular, the artistic and eloquent nature of the two brotherly peoples reminds us once again that the Turkic peoples have one root.

Key words: mutual mani, lapars, ceremony, saying.

[1]*Turobova Mohinur* - Магистрант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы
E-pochta: turobovmohinur@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0003-7156-3169
For citation: *Turobova M. 2025. “A study of uzbeki languages and turkish counterfeit manis*”. Uzbekistan: Language and Culture. Folklore. Dialectology. 2. 224-231. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/VPQZ3011

References

Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – Toshkent: Talqin, 2008, 10-bet.

Qosimov N. O‘zbek xalq laparlari janr spesifikatsiyasi va badiiyati dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zb.Res. fanlar akademiyasi 1998.

Süreyya Özbek. Kıbrıs Türk toplumunda sosyal, ekonomik ve siyasal dönüşümlerin manilerde irdelenmesi yüksek lisans tezi – Ankara: 2010, 20- sayfa.

O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi, Toshkent “O‘qituvchi nashriyoti” 2019. – 108 b.

Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zb xalq poetik ijodi. – Toshkent: “O‘qituvchi” 1990. – 135 b.

Ali Chelik. “Manilerimiz va Trabzon manilari” – Ankara 2005. 72 sayfa

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com